

**DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVIDA HUQUQBUZARLIKLER
PRAFILAKTIKASINING AHAMIYATI**

*Do'lashev Fayozbek Ubaydulla o'g'li
O'zbekiston respublikasi IIV akademiyasi
320-guruh kursanti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada jamiyat boshqaruvida huquqbazarliklarni profilaktika etish masalalari sharhi keltriladi hamda huquqiy tahlil olib boriladi.

Kalit so`zlar: huquqbazarlik, boshqaruv, qonun, metod.

Bugunki kunda mamlakatimizda barcha sohalarda ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Bular bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan Ichki ishlar sohasida ham ko'plab islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bunga misol qilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagи “Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi¹ PF-6196-son farmoni qabul qilindi. Bu farmonga muvofiq jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbazarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning yaxlit tizimini shakllantirish, ichki ishlar organlarining eng quyi bo‘g‘inidan respublika darajasigacha samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yish va zamonaviy ish uslublarini joriy etish orqali mamlakatimizda huquq-tartibot va qonuniylikni mustahkamlash, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash maqsadida quydagi vazifalar belgilab berildi:

birinchidan

har bir mahalla, oila va shaxs kesimida jinoyatchilikning sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish orqali huquqbazarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishga oid muammolarni bevosita joylarning o‘zida hal etish;

hududlarda jinoyatchilik ahvoldidan kelib chiqib, har bir tuman, shahar va mahallalarni toifalarga ajratish hamda hokimliklar, sektorlar va jamoatchilik bilan hamkorlikda “jinoyat o‘choqlari”ni bartaraf etish uchun barcha zarur kuch va vositalarni jalb qilish;

“respublika — viloyat — tuman — mahalla” tizimi asosida yaxlit boshqaruv va uzlusiz nazorat qilish mexanizmlarini joriy etish, ichki ishlar va boshqa davlat organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash borasidagi faoliyatini samarali muvofiqlashtirish orqali mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash;

ichki ishlar organlari xodimlarining zamonaviy qiyofasini yaratish, ularning

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagи “Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6196-son farmoni

mas'uliyati va kasbiy salohiyatini oshirish, jinoyatchilikning yangi ko'rinishlariga qarshi kurashish uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirish hamda sohani to'liq raqamlashtirishga erishish kabi vazifalar tizimli amalga oshirilib kelinmoqda.

ikkinchidan:

Ichki ishlar organlarining tayanch punktlari negizida mahalla huquq-tartibot maskanlari bosqichma-bosqich tashkil tashlik etildi quydagilar belgilab qo'yildi:

mahalla huquq-tartibot maskani hududdagi jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning asosiy quyi bo'g'ini hisoblanadigan bo'ldi;

mahalla huquq-tartibot maskani negizida hududdagi ichki ishlar organlarining tegishli sohaviy xizmatlari hamda Milliy gvardiya va boshqa davlat organlarining muvofiqlashtirilgan faoliyati tashkil etiladi;

mahalla huquq-tartibot maskani tomonidan jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish ishlarini tizimli tashkil etish va muvofiqlashtirish vazifasi profilaktika inspektoriga yuklandi.

Profilaktika inspektoriga masofadan turib murojaat yuborish va uni ko'rib chiqish jarayonini kuzatib borish, aholi bilan o'zaro tezkor muloqotni yo'lga qo'yish, profilaktika inspektorlari va sektor rahbarlari faoliyatiga baho berish imkonini beruvchi "Smart mahalla" axborot dasturi ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiq etildi. Mahalla huquq-tartibot maskani mahalla va qishloqlarda jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini bevosita amalga oshiradigan, shuningdek, fuqarolarning xavfsizligi va osoyishtaligini ta'minlash borasida ichki ishlar organlari, boshqa huquq-tartibot organlari va jamoat tuzilmalarining mahallalar kesimida birgalikda ishlashini tashkil etadigan ichki ishlar organlarining eng quyi bo'g'inidagi tarkibiy tuzilmasi hisoblanadigan bo'ldi.

Mahalla huquq tartibot maskani o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni va boshqa qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Ichki ishlar vazirligining normativ hujjatlariga, shuningdek, ushbu Nizomga amal qiladi.² Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi chora-tadbirlarning aniq manzilga yo'naltirilmaganligi va ularga kompleks yondashilmayotganligi, shuningdek huquqbuzarliklarning tizimli ravishda sodir etilishiga doir sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatni yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkilchilarni chora tadbirlar to'g'risida" PQ-5050-son qarori

bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish samaradorligi mavjud emasligi kutilayotgan natijalarni bermayapti. Bu holatlarni bartaraf qilish uchun huquqbazarliklar profilaktikasi samaradorligini, shu jumladan huquqbazarliklar dinamikasi, ularni sodir etish takroriyligi, ijtimoiy fikr, profilaktik ishlar natijasidan fuqarolarning qoniqish hosil qilishi va aholi bilan hamkorlik darajasini inobatga oladigan baholashning aniq mezonlari joriy etish belgilandi va quydagilar amalga oshirish belgilab qo‘yildi:

huquqbazarliklar profilaktikasi bo‘yicha idoralararo dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda manzillilik, sohaviy ixtisoslashuv, hududiy va boshqa o‘ziga xos xususiyatlar inobatga olinishini ta’minlash;

ijtimoiy muammolarni hal etish, birinchi navbatda aholi bandligini ta’minlash, ayollar va yoshlarni ijtimoiy-foydali faoliyatga jalb etishni faollashtirish, voyaga yetmaganlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish;

huquqbazarliklar profilaktikasi muammolari bo‘yicha kompleks ilmiy va amaliy tadqiqotlar o‘tkazish, profilaktik ishlarni olib borishning zamonaviy uslubiyotini joriy etish;

huquqbazarliklardan jabrlanuvchilar va g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbazarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan yoki sodir etgan shaxslarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa yordam ko‘rsatish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimini rivojlantirish;

huquqbazarliklar profilaktikasiga fuqarolar va jamoat tashkilotlarini, shu jumladan ularni moddiy va boshqacha tarzda rag‘batlantirish orqali jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish kabi ishlar belgilab berildi.

Haftaning har payshanba kuni “Huquqbazarliklar profilaktikasi kuni” etib belgilandi va ushbu kunda quyidagi tadbirlarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda:

huquqbazarliklarga murosasizlik madaniyatini shakllantirish, huquqiy nigelizmga barham berish va fuqarolarning qonunga itoatkorlik xulq-atvorini ommalashtirishga qaratilgan, shu jumladan ichki ishlar organlari tayanch punktlari, huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat idoralari va tashkilotlarida “ochiq eshiklar kuni”ni tashkil etish orqali tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

qonuniylik ahvolini va huquqbazarliklar profilaktikasi bo‘yicha chora-tadbirlarning samaradorligini atroficha muhokama qilish uchun joylarda, birinchi navbatda kriminogen vaziyat nomaqbul bo‘lgan hududlarda fuqarolarning sayyor qabullarini hamda davlat idoralari va tashkilotlari vakillarining aholi bilan uchrashuvlarini tashkil etish;

ijtimoiy ahamiyati muhim bo‘lgan sud muhokamalari bo‘yicha sayyor sud majlislarini o‘tkazish;

aholi turmushining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini o‘rganish, huquqbazarlik sodir

etishga ko‘maklashuvchi shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish maqsadida uyma-uy yurishlar amalga oshirilmoqda va bu kabi tadbirlar o‘z samarasini berib kelmoqda.

Huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar haqida davlat idoralari va tashkilotlari rahbarlarining hisobotlarini eshitish ham yo‘lga qo‘yilganini ko‘rishimiz mumkin.³ Hozirgi kunda huquqbazarliklar prafilkatikasi sohasida ko‘plab normativ huquqiy hujjatlar qabul qilinib, bu sohada jinoyatlar va huquqbazarliklarni yanada kamaytirishga yordam berayotganini ko‘rishimiz mumkin hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, davlat va jamiyat boshqaruvida huquqbazarliklar profilaktikasining ahamiyati ortib borayotganini profilaktika sohasiga qaratilayotgan e’tibor natijasida hozirgi kunga kelib huquqbazarliklarning sodir etilish darajasi sezilarli kamayib bormoqda va ishonamizki, yaqin yillar ichida bu ko‘satkichlar bundanda ijobiyroq ko‘rinishga keladi. Shu sabab sohaga e’tiborni bir zumga ham kamaytirmaslik lozim. Tinchlik bu buyuk ne’mat. Tinchlikni saqlovchilar esa bu ne’matning qanchalik muhim va totli ekanligini juda yaxshi bilishadi. Aholi ham bu ne’matning qanchalik muhim va kerak ekanligini anglab yetmoqda, shu sabab jamiyat, davlat rivojlanmoqda va yuksalmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni, 01.05.2023 yildagi O‘RQ-837-son
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 14.05.2014 yildagi O‘RQ-371-son
3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 16.09.2016 yildagi O‘RQ-407-son
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.03.2021 yildagi PF-6196-son
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.04.2021 yildagi PQ-5050-son
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 14.03.2017 yildagi PQ-2833-son
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 23.06.2022 yildagi 343-son

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi “Huquqbazarliklar prafilkatikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PQ-2833-sonli qarori